

Oriental Journal of Education



ADVANTAGES OF ESTABLISHING COOPERATIVE RELATIONS IN THE ACTIVITIES OF THE FAMILY AND WOMEN'S SYSTEM

Nazokatkhon Kobiljonovna Tojibayeva*Doctoral student (DSc), PhD, Associate Professor**Institute for Family and Gender Scientific Research**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: family system, women's affairs, cooperation, social partnership, community, gender equality, social stability.

Received: 27.10.25**Accepted:** 28.10.25**Published:** 29.10.25

Abstract: This article analyzes the socio-pedagogical advantages of establishing cooperation between the family and the women's support system. The study examined the role of interaction among mahalla (community institutions), educational organizations, social services, and government agencies in ensuring family stability. Empirical findings revealed that effective inter-agency collaboration reduces family conflicts, increases women's social participation, and strengthens the social protection system. Comparative analysis with foreign experience also demonstrates that Uzbekistan's model, based on national values, has significant potential for sustainable development.

OILA VA XOTIN-QIZLAR TIZIMI FAOLIYATIDA HAMKORLIK MUNOSABATLARINI YO'LGA QO'YISHNING AFZALLIKLARI

Nazokatxon Kobiljonovna Tojibayeva*Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti**DSc doktoranti phd dotsent**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: oila tizimi, xotin-qizlar, hamkorlik, ijtimoiy hamkorlik, mahalla, gender tenglik, ijtimoiy barqarorlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila va xotin-qizlar tizimi o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik afzalliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida oila institutining barqarorligini ta'minlashda mahalla, ta'lim muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlikning roli o'rganildi. Empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, idoralararo aloqaning samarali

tashkil etilishi oilaviy nizolarni kamaytiradi, ayollar faolligini oshiradi va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlaydi. Shuningdek, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil O'zbekiston modelining milliy qadriyatlarga tayangan holda barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

ПРЕИМУЩЕСТВА НАЛАЖИВАНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СИСТЕМЫ СЕМЬИ И ЖЕНЩИН

Назокатхон Кобилжонова Тожибаева

Докторант DSc, PhD, доцент

Институт научных исследований семьи и гендера

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семейная система, женщины, сотрудничество, социальное партнёрство, махалля, гендерное равенство, социальная стабильность.

Аннотация: В статье рассматриваются социально-педагогические преимущества налаживания сотрудничества между системой семьи и системой поддержки женщин. В ходе исследования изучена роль взаимодействия махалли, образовательных учреждений, социальных служб и государственных органов в обеспечении устойчивости семьи. Эмпирические результаты показали, что эффективная межведомственная координация снижает уровень семейных конфликтов, повышает социальную активность женщин и укрепляет систему социальной защиты. Сравнительный анализ с зарубежным опытом выявил, что узбекская модель, основанная на национальных ценностях, обладает высоким потенциалом устойчивого развития.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish sharoitida oila institutining barqarorligini ta'minlash va xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish masalalari har bir davlatning ijtimoiy siyosatida muhim o'rin tutadi. Oila – jamiyatning eng muhim ijtimoiy hujayrasi sifatida nafaqat demografik, balki iqtisodiy va madaniy barqarorlikni ham belgilab beradi. So'nggi yillarda ro'y berayotgan urbanizatsiya, migratsiya, raqamli texnologiyalar kengayishi kabi ijtimoiy o'zgarishlar oilaviy qadriyatlar tizimiga yangi sinovlarni keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, oila va xotin-qizlar tizimi faoliyatida hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish dolzarb ehtiyojga aylanmoqda. Chunki bunday hamkorlik oiladagi tazyiq, zo'ravonlik, ishsizlik, ijtimoiy chetlashuv kabi muammolarga kompleks yondashuvni ta'minlaydi hamda davlat, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatni mustahkamlaydi. (Albanesi, Tomasetto va Guardabassi 2021, p. 390)

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, oilaviy barqarorlikni saqlashda turli tizimlar o'rtasidagi hamkorlik samaradorlikni oshiradi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida oilani qo'llab-quvvatlash tarmog'i orqali ijtimoiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va psixologik yordam markazlari yagona elektron tizim asosida ishlaydi. Bu orqali muammoli oilalar erta bosqichda aniqlanib, manzilli yordam ko'rsatiladi. Kanada va Buyuk Britaniyada ko'p tashkilotli hamkorlik modeli amalda bo'lib, unda mahalla, maktab, tibbiyot muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar oila xavfsizligini ta'minlashda birgalikda harakat qiladi. Janubiy Koreyada sog'lom oila markazlari tizimi mavjud bo'lib, u oila a'zolarining psixologik, ijtimoiy va huquqiy muammolarini kompleks tarzda hal etadi. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, oila va xotin-qizlar tizimida hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy himoya, balki barqaror taraqqiyot, gender tenglik va inson qadrini ulug'lash tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish uchun muhim mexanizm hisoblanadi. Shu bois, O'zbekiston sharoitida ham bunday tizimni takomillashtirish jamiyatda oila institutini mustahkamlash, ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston sharoitida oila va xotin-qizlar tizimi o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik mexanizmlari tanlab olindi. Tadqiqotning maqsadi — oila institutida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash tizimida turli darajadagi tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan 120 nafar respondent (ayollar, erkaklar, o'qituvchilar, mahalla faollari, ijtimoiy ishchilar, talaba-yoshlar) o'rtasida o'tkazildi. Respondentlar turli hududlardan tanlab olinib, ijtimoiy-demografik xilma-xillikni ta'minlashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqotda sotsiologik so'rov, suhbat, hujjatlar tahlili, kuzatish va qiyosiy tahlil metodlari qo'llanildi. Sotsiologik so'rovlar orqali oila va xotin-qizlar tizimi o'rtasidagi hamkorlikning amaliy holati, mavjud muammolar, ayollarning ijtimoiy faollik darajasi va psixologik ehtiyojlari o'rganildi. Suhbat va intervyular esa respondentlarning shaxsiy tajribasini, oilaviy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni va jamiyatdagi qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga nisbatan munosabatini aniqlashga qaratildi. Hujjatlar tahlili orqali "Oila" ilmiy-amaliy markazi, "Ayollar daftari", "Xotin-qizlar qo'mitasi" hamda mahalla tizimida olib borilayotgan davlat dasturlari tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqotda o'zbek olimlarining ilgari olib borgan ishlari metodologik asos sifatida xizmat qildi. Xususan, Yo'ldoshev X. o'zining "Pedagogik psixologiya asoslari" asarida oilaning ijtimoiy muhitdagi tarbiyaviy funksiyasini tahlil qilib, oiladagi ruhiy muhitni barqarorlashtirishda ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi muhimligini ta'kidlagan. Bu yondashuv bizning tadqiqotimizda ham oila va xotin-qizlar tizimining integratsiyalashgan faoliyatini tahlil qilishda nazariy asos bo'ldi.

Shuningdek, To‘xliyeva N. (2020, p.55) tomonidan yozilgan “Ayollar ta’limida psixologik yondashuvlar” nomli ishda ayollarning shaxsiy o‘sishi va oila muhitida o‘zini namoyon etishi uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining zarurligi ilmiy asoslangan. Bu fikr tadqiqotimizda xotin-qizlar tizimining psixologik xizmatlar bilan hamkorlikda ishlash samaradorligini baholashda qo‘llanildi.

Hasanov M. (2021, p.73) esa “Zamonaviy ta’limda gender tenglik va ayollar faolligi” asarida oila institutini gender nuqtayi nazardan tahlil qilib, ayollar faolligini oshirishda mahalla, ta’lim muassasalari va davlat idoralari o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni muhim omil sifatida ko‘rsatgan. Ushbu yondashuv tadqiqotimizda ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini o‘lchovli ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini berdi.

Bundan tashqari, To‘raqulova D. (To‘raqulova, 2018, p.89) ning “Oila sotsiologiyasi” asarida oila institutining jamiyatdagi o‘rni, uning ijtimoiy funksiyalari va mahalla tizimi bilan o‘zaro aloqasi yoritilgan. U oilani ijtimoiy tizim sifatida ko‘rib, undagi nizolarni kamaytirishda mahalliy institutlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini qayd etgan. Bu fikrlar tadqiqotimizda oila va xotin-qizlar tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning ijtimoiy funksional modelini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda nazariy asoslar va ilgari o‘rganilgan adabiyotlar tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda respondentlar o‘rtasida sotsiologik so‘rov va intervyular o‘tkazilib, empirik ma’lumotlar to‘plandi. Uchinchi bosqichda esa olingan natijalar tahlil qilinib, oila va xotin-qizlar tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning afzalliklari ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida oila va xotin-qizlar tizimi o‘rtasidagi hamkorlik darajasi, uning oilaviy barqarorlikka ta’siri hamda ijtimoiy muammolarni bartaraf etishdagi roli aniqlashtirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, aholining 68 foizi mavjud hamkorlik tizimidan qisman mamnun, biroq ularning 32 foizi bu tizimda axborot almashinuvi va amaliy muvofiqlikning yetarli emasligini qayd etgan. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi ayollar orasida ijtimoiy xizmatlardan xabardorlik darajasi pastligi (43 foiz) aniqlangan. Bu esa oilaviy muammolarni erta aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish mexanizmini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalla, “Xotin-qizlar qo‘mitasi” va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik mavjud bo‘lgan hududlarda oila ichki nizolarining kamayishi kuzatildi. Jumladan, mahalla psixologi, tibbiyot xodimi va o‘qituvchi birgalikda ishlaydigan 24 ta oilada konfliktlar soni o‘rtacha 35 foizga kamaygan. Aksincha, hamkorlik zaif bo‘lgan joylarda oilaviy tazyiq, nizolar va huquqbuzarlik holatlari yuqori darajada (taxminan 28–30 foiz) saqlanib qolgan.

Shuningdek, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarining ahamiyati ham empirik jihatdan tasdiqlandi. “Ayollar daftari” orqali mikrokredit yoki kasbga o‘qitish loyihalarida ishtirok etgan

respondentlarning 72 foizi o'zining oilaviy ahvoli yaxshilanganini, 19 foizi esa barqaror daromad manbaiga ega bo'lganini bildirgan. Psixologik qo'llab-quvvatlash markazlariga murojaat qilgan ayollarning 64 foizida oilaviy stress holatlari kamaygan. Shu orqali hamkorlik tizimi faqat iqtisodiy emas, balki ma'naviy va psixologik barqarorlikni ham ta'minlayotgani aniqlandi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, hamkorlikning muvaffaqiyatli ishlashi ko'p jihatdan mahalla tizimi faoliyatining samaradorligiga bog'liq. Mahalla markazlari oila muammolarini aniqlash, psixologik maslahat berish, ayollarni kasbga tayyorlash va ijtimoiy xizmatlar bilan bog'lashda vositachi rolini bajaradi. Shu sababli mahalla institutini hamkorlik tizimining asosiy bo'g'ini sifatida kuchaytirish zarurligi aniqlangan.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila va xotin-qizlar tizimi o'rtasida hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish nafaqat ijtimoiy himoya, balki jamiyatda barqarorlik va gender tenglikni ta'minlashning muhim omilidir. Bu holat Yo'ldoshev X. (Yo'ldoshev, 2019, p. 42). tomonidan ilgari surilgan "oilaviy ijtimoiy muhit shaxs tarbiyasining asosiy faktori" degan nazariy g'oyaga mos keladi. Chunki tadqiqot natijalari ham oiladagi psixologik muvozanat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va ayollarning faol ishtiroki o'zaro chambarchas bog'liqligini isbotladi.

To'xliyeva N.ning (2020, p. 55) ayollar ta'limidagi psixologik yondashuv haqidagi ilmiy qarashlari ham ushbu tadqiqot bilan uyg'unlashadi. U ayollarni ruhiy qo'llab-quvvatlash ularning oilaviy munosabatlarda bardoshlilikini oshirishini ta'kidlagan. Bizning natijalar ham bu fikrni tasdiqlaydi — psixologik yordam olgan ayollar oilaviy nizolarga nisbatan murosali, muloqotga ochiqroq bo'lgan.

Hasanov M.ning (2021, p. 73) gender tenglik bo'yicha olib borgan ishlari esa oila va xotin-qizlar tizimidagi iqtisodiy hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari ham bu yo'nalishni mustahkamladi: ayollarning iqtisodiy mustaqilligi ortgan sari oiladagi tazyiq va qaramlik darajasi kamaymoqda. Bu, o'z navbatida, oilaning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Tahlil jarayonida aniqlanganidek, O'zbekiston tajribasida oila va xotin-qizlar tizimi o'rtasidagi hamkorlik milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan. Mahalla tizimi orqali ijtimoiy muammolarni erta aniqlash, "Oila" ilmiy-amaliy markazi orqali metodik qo'llab-quvvatlash va davlat dasturlari orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash amaliy mexanizmga aylangan. Bu model xorijiy tajribalarda mavjud tizimlardan farqli ravishda, mahalliy ijtimoiy an'analar, o'zaro ishonch va jamoaviy birdamlik tamoyillariga tayangan holda ishlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oila va xotin-qizlar tizimi o'rtasida samarali hamkorlikni shakllantirish oilaviy zo'ravonlik, tazyiq va ijtimoiy beqarorlikni kamaytirishda sezilarli natija beradi (Lwamba 2022, p. 2143). Shu bois, bu tizimni yanada takomillashtirish uchun idoralararo integratsiya, axborot almashinuvi va mahalla darajasida psixologik-pedagogik xizmatlar faoliyatini

kengaytirish lozim. Oila va xotin-qizlar tizimi faoliyatining uyg'unlashuvi jamiyatda sog'lom muhit, ijtimoiy birdamlik va milliy qadriyatlarga asoslangan barqaror taraqqiyot modelini shakllantiradi. (Olsson 2024, p. 710)

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oila va xotin-qizlar tizimi o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish oilaviy yashash sharoitlarini yaxshilash, ichki tazyiq va nizolarni kamaytirish hamda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun muhim instrument ekan (Cinar et al., 2025, p. 201; Hilmiana, 2024, p. 269). Empirik ma'lumotlarga ko'ra, hamkorlik yuqori darajada tashkil etilgan mahalla va ijtimoiy xizmat markazlarida oilaviy nizolar 35 foizga yaqin kamaygan, ayollar tomonidan qo'llanilayotgan qo'llab-quvvatlash dasturlarida esa ijtimoiy-psixologik holat yaxshilanishi 60 foizdan ortiq natija bergan. Shu bilan birga, hamkorlik tizimida axborot almashinuvi va tashkilotlararo integratsiya cheklangan joylarda tazyiq va zo'ravonlik holatlari yuqori ekanligi aniqlangan.

Tahlil natijalari, shuningdek, jahon tajribasi bilan ham mos keladi: masalan, ayollarning ijtimoiy tarmoqlari qo'llab-quvvatlagan hollarda psixologik farovonlik yuqoriligi aniqlangan. Bu holat O'zbekistonda ham oila bilan xotin-qizlar tizimi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashni dolzarb ehtiyoj ekanligini namoyon qiladi.

Tavsiyalar. Mahalla darajasida «hamkorlik markazlari» tashkil etilsin: mahalla, ijtimoiy xizmatlar, xotin-qizlar qo'mitasi va tibbiyot/ta'lim muassasalari o'rtasida ma'lumot almashinuvi, muddatli maslahat xizmatlari va tezkor murojaat mexanizmlari yo'lga qo'yilsin.

Ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash dasturlari kengaytirilishi lozim: mikrokredit, kasb-hunar o'rgatish, ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali oilaviy daromad manbalarini diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

Psixologik xizmatlar bilan integratsiya kuchaytirilsin: mahalla markazlari va xotin-qizlar tizimi psixolog, oilaviy maslahatchi va huquqshunos bilan birgalikda "stress-oilaviy nizolar"ni erta aniqlash va profilaktika qilish tizimini joriy etsin.

Axborot-ta'lim kampaniyalari amalga oshirilsin: oilaviy hamkorlik, gender tenglik, zo'ravonlikka nisbatan nolinchi nuqtani oshirish maqsadida mahalla, maktab va OAV orqali targ'ibot ishlari olib borilsin.

Monitoring va baholash tizimi yaratilishini taklif qilinadi: hamkorlik strukturalari samaradorligini o'lchash uchun indikatsiyalar (oilaviy nizolar soni, murojaat darajasi, ayollarning ijtimoiy faolligi) ishlab chiqilsin va natijalar asosida qayta ko'rib chiqish olib borilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova, G. (2022). The role of women in family and society. Tashkent State Pedagogical University, Scientific Articles Collection.

2. Albanesi, C., Tomasetto, C., & Guardabassi, V. (2021). Evaluating interventions with victims of intimate partner violence: A community psychology approach. *BMC Women's Health*, 21, 138.
3. Andrews, P. (2025). Facilitating best clinical practice in domestic violence work: Experiences of internal referrers to a hospital-based social work led service. *Journal of Social Work Practice in the Domestic & Family Violence Field*.
4. Billah, M. M. (2023). Effect of women empowerment on family life: Perception of husband and wife. *Journal of Studies in Social Sciences*, 4, 12–16.
5. Cinar, K. (2025). Women's empowerment via women's cooperatives: An exploration in patriarchal societies. *Social Policy & Administration*.
6. Denvall, V. (2025). Collaboration work in domestic violence: Multi-agency interaction aimed at protecting women from intimate partner violence. *European Journal of Social Work and Research*.
7. Hasanov, M. (2021). Gender equality and women's activity in modern education. Tashkent: Fan va Texnologiya Publishing.
8. Hilmianà, H. (2024). The role of women in improving the welfare of their families in the pandemic context. *Cogent Social Sciences*, 10, 2373465.
9. Lwamba, E. (2022). Strengthening women's empowerment and gender equality in fragile contexts towards peaceful and inclusive societies. *Global Public Health*, 17(11), 2138–2150.
10. Mahapatro, M. (2021). Role of social support in women facing domestic violence: Where do we go from here? *International Journal of Social Science Studies*, 9(2), 1–10.
11. Muluneh, M. D. (2021). The effect of women's empowerment in the utilisation of family planning in Jimma Zone, Ethiopia. *Reproductive Health*, 18(1), 36.
12. Olsson, H. (2024). Social workers' experiences of working with partner violence. *British Journal of Social Work*, 54(2), 704–722.
13. To'raqulova, D. (2018). *Sociology of the family*. Tashkent: Tashkent State University Publishing.
14. To'xliyeva, N. (2020). *Psychological approaches in women's education*. Tashkent: Fan va Texnologiya Publishing.
15. Yo'ldoshev, X. (2019). *Foundations of pedagogical psychology*. Tashkent: O'qituvchi Publishing.